



BOSHLANG'ICH TALIM O'QITUVCHISI FAOLIYATIDA PSIXODIAGNOSTIKANING TARBIYAVIY AHAMIYATI.

Qo'qon Universiteti Andijon filiali Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 24-04

guruh 2-bosqich talabasi

Toshtemirova Dilnozaxon Ma'mirjon qizi.

Anotatsiya: Ushbu maqolada Boshlang'ich tal'lim o'qituvchisi faoliyatida psixodiagnostikaning tarbiyaviy ahamiyati va uning tarbiyaviy jarayondagi o'rni usullari tahlil qilinadi. Maqolada psixodiagnostika o'qituvchi shaxsini har tomonlama o'rganish, uning qobiliyat va individual xususiyatlarini aniqlashdagi ro'li tahlil qilinadi. Shuningdek psixodiagnostika yordamida o'quvchi shaxsiga individual yondashuvini ta'minlash, ijobiy va tarbiyaviy muhit yaratish va ota-onalari bilan hamkorlikni mustahkamlash imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Tekshiruv natijasida psixodiagnostika boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Psixodiagnostika, boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi fa'oliyatida tarbiya individual yondashuv, o'qituvchining shaxsiyati, pedagogik salohiyati bolalar bilan ishlash jarayonlari, bolaning psixologik holatini o'rganishi, psixologik rivojlanishi.

ANNOTATION.

IN this article, the significance of psychodiagnostics in the professional activity of primary school teachers and its role in a teacher's and their application in assessing learner's individual characteristics are examined. The article also highlights the importance of cooperation between the teacher, the student, and the parents, as well as the results obtained from diagnostic observations. Furthermore, it emphasizes that



the effectiveness of the teacher's pedagogical activity largely depends on the proper organization of psychodiagnostic work and the accurate study of pupils' psychological development.

Keywords:

Psychodiagnostics, primary education, teacher's activities, process, individual approach, teacher's pedagogical competence, psychological state of pupils, developmental changes, psychological peculiarities.

АННОТАЦИЯ.

В данной статье анализируется значение психодиагностики в профессиональной деятельности учителя начальных классов, а также её роль в воспитательном и образовательном процессе учителя. Рассмотрены различные методы психодиагностики и их применение в изучении индивидуальных особенностей учащихся. Также подчеркивается важность сотрудничества учителя, ученика и родителей, а также результаты полученные в ходе диагностических наблюдений. Кроме того отмечается что эффективность педагогической деятельности учителя во многом зависит от правильности организации психодиагностической работы и глубокого изучения психологического развития учащихся.

Ключевые слова:

Психодиагностика, начальное образование, профессиональная деятельность учителя, воспитательный процесс, индивидуальный подход, педагогическая компетентность учителя, психологическое состояние учащихся, возрастные изменения, психологические особенности.



Boshlang'ich ta'lim - bu bola shaxsining shakillanishida eng muhim bosqichlardan biridir. Shu davrda nafaqat o'quvchi bilim oladi, balkim unda ijtimoiy, hissiy, axloqiy va intellektual sifatlar ham rivojlanadi. Bu jarayonda o'qituvchining ro'li katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning psixologik holatini o'rganish, ularning individual xususiyatlarini aniqlash va ularga mos tarbiyaviy yondashuvni qo'llash katta ahamiyat kasb etadi. Bunda psixodiagnostika muhim vosita sifatida ro'l o'ynaydi.

Psixodiagnostika tushunchasi va maqsadi. Psixodiagnostika - bu shaxsning psixologik xususiyatlarini o'lchash, aniqlash va ularni tahlil qilishga qaratilgan ilmiy usullar majmuasidir. Uning maqsadi bolani individual rivojlanishi, qobiliyati, temperamenti, qiziqish darajasi va hissiy holatini aniqlashdir. Boshlang'ich talim bosqichlarida bu ma'lumotlar o'qituvchiga har bir o'quvchiga individual yondashuvni tanlashda yordam beradi.

O'qituvchi faoliyatida psixodiagnostikaning o'rni. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z faoliyatida o'quvchilarning quyidagi jihatlarini psixodiagnostika yordamida aniqlash mumkin, bilimlarni o'zlashtirish darajasi, diqqat xotira va tafakkur xususiyatlari, emotsional holat va o'zini o'zi tutish madaniyati, ijtimoiy moslashuv darajasi, ijodkorlik va qobiliyat turlari bo'lib bu jarayonlar o'qituvchilarga bolalarni o'qishdagi muvoffaqiyatini ta'minlash ularga mos metod va tarbiyaviy usullarni qo'llash imkonini beradi.

Psixodiagnostika faqat psixologik holatni o'lchash vositasi emas, balki tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshiruvchi omildir. U quyidagi tarbiyaviy vazifalarni bajaradi.

Individallashtirilgan yondashuvni ta'minlaydi ya'ni har bir o'quvchining qobiliyat va imkoniyatlari xarakterli bo'lib psixodiagnostika orqali o'qituvchi bu farqlarni bilib, har bir bola uchun mos o'quv topshiriqlarini tanlay oladi.



Ijobiy muhit yaratadi o'qituvchi bolalarning hissiy holatini bilgan holda, sinfda iliq, qo'llab quvvatlovchi muhit yaratadi. Bu esa o'quvchilarning o'ziga ishonchini oshiradi.

Barkamol shaxs tarbiyasiga xizmat qiladi psixodiagnostika tizimida o'qituvchining kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi bu esa o'qituvchiga o'z faoliyatini takomillashtirish, pedagogik yondashuvlarni tog'irlash va shaxsiy rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi. Natijada psixodiagnostika o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali munosabatni shakillantirishga shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirishga yordam beradi.

Oilaviy hamkorlikni mustaxkamlaydi. Psixodiagnostika natijalari o'qituvchi psixolog va ota-onalar o'rtasidagi muloqotni kuchaytiradi, bola tarbiyasida yagona yondashuvni shakillantiradi.

***L.S.Vygotskiy** (rus psixologi) "Har bir bola – bu o'ziga xos psixologik olamdur. O'qituvchi uning ichki imkoniyatlarini bilmasdan turib, uni to'g'ri tarbiyalay olmaydi". Bu fikr psixodiagnostikaning ahamiyatini, ya'ni o'qituvchining individual xususiyatlarini o'rganish tarbiya uchun zarurligini ta'kidlaydi.*

***K.D.Ushinskiy** (rus pedagogi) "Agar tarbiyachi bolaning ichki dunyosini bilmasa, u tarbiya jarayonida ko'p xatoliklarga yo'l qo'yadi". Ushinskiy o'quvchidan psixologik bilim va kuzatuvchanlikni talab qilgan. Bu aynan psixodiagnostikaning tarbiyaviy ro'liga mos keladi.*

***Abu Nasr Farobiy** (sharq mutaffakiri) "Insonni komilika elituvchi yo'l-bu uning ruhini va aqlini tog'ri yo'naltirishdir". Bu g'oya ham psixodiagnostika orqali bolani aqliy va ruhiy rivojlanishini o'rganish zarurligini asoslaydi.*

Psixodiagnostika boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi faoliyatida nafaqat psixologik jarayonlarni tahlil qilish vositasi, balki tarbiyaviy jarayonni



boshqarishning muhim ko'mponentidir.U o'qituvchiga har bir o'quvchini chuqurroq tushunish,ularning individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va samarali tarbiya jarayonini yo'lga qo'yishda yordam beradi.Shu boisdan,zamonaviy o'qituvchi psixodiagnostika usullarini bilishi va ularni o'z amaliyotida qo'llay olishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Vygovskiy,LS."Psixologiya zarvitiya rebenka"-

Moskva:Pedagogika,1984.(Bolaning psixik rivojlanishi,o'quv faoliyati va tarbiya jarayonidagi o'zaro bog'liqlik haqida.)

Makarenko,A.S."Pedagogik poema"-

Moskva:Prosveshcheniye,1988.(O'quvchi shaxsini tushunish va tarbiyadagi individual yondashuv haqida fikrlar.)

Ushinskiy.K.D."Chelovek kak predmet vospitaniya .Opit pedagogicheskoy antropologii"-Moskva:Pedagogika,1974.(Tarbiyada inson psixologiyasini bilishning ahamiyati haqida.)

Farobiy,Abu Nasr."Fozil odamlar shahri"-Toshkent: "Fan" nashiryoti,1993.(Kamil inson tarbiyasiva aql,ruh muvozanati haqida.)

Qosimova,N (2018).Pedagogik psixologiya-Toshkent:TDPU nashriyoti.(Psixodiagnostika,tarbiya va o'qituvchi shaxsiy fazilatlari haqida.)

Zamonaviy manba:*Raxmonova,M.,&Yo'ldosheva,G.(2020).Boshlang'ich ta'limda psixodiagnostikaning o'rni va ahamiyati.- "Ta'lim va fan" jurnali №4.(Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining psixologik tayyorgarligi haqida ilmiy maqola.)*